

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati ishchi-xodimlari o'rtasida o'tkazilgan "Kitobxon xodim" tanloving g'oliblari aniqlandi

// 20.10.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kitobxon-xodim>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan ishchi-xodimlari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan "Kitobxon xodim" tanlovi o'tkazildi.

Tanlovda "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan barcha ishchi-xodimlar ishtirok etdi. Tanlovnki tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ishchi-xodimlar o'rtasida badiiy asarlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini targ'ib qilish orqali jamoada har tomonlama sog'lom muhit yaratish va fikrlash doiralarini yanada kengaytirish, Prezidentning besh muhim tashabbusi doirasida kitobxon xodimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ma'naviy-intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish va kitobdan foydalanishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Tanlov quyidagi uchta shart asosida tashkil etiladi:

1. "Eng ko'p kitob o'qigan xodim" sharti. Bunda ishtirokchilar taqdim etgan o'qigan kitoblari ro'yxati asosida baholandi.
2. "Annotatsiya mahorati" sharti. Bunda ishtirokchi tomonidan o'zi taqdim etgan badiiy asarlar ro'yxatidan hakamlar tanlagan asar bo'yicha qisqacha ma'lumotlar – annotatsiya berildi.
3. "Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish" sharti. Bunda ishtirokchi tomonidan

kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish jarayoni amalga oshirildi va ishtirokchilarning takliflari tinglandi.



Hakamlar hay'ati qaroriga muvofiq quyidagi ishtirokchilar g'olib deb topildi:

- 1-o'rin: Mirzaeva Sharifa – bosh mutaxassis;
- 2-o'rin: Saidov Sanjar – bosh iqtisodchi;
- 3-o'rin: Amanov Adxam – departament boshlig'i o'rinnbosari.





"Kitobxon xodim" tanlovi g'oliblari kitoblar to'plami va diplom bilan taqdirlandi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati